



# QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI  
1-SON

KOKAND UNIVERSITY | 2023  
HERALD | VOLUME №1

**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI  
1-SON**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD  
VOLUME 1**

**ВЕСТНИК  
КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТ  
ВЫПУСК 1**

**1/2023**

# **QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI Ilmiy-elektron jurnali**

**Tahrir kengashi raisi:**

G'.E.Zaxidov

**Bosh muharrir:**

Sh.R.Ruziyev

**Tahrir kengashi mas'ul kotibi:**

A.A.Yusupov

**Tahririyat hay'ati:**

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

**Qo'qon universiteti xabarnomasi**

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonardon

© "Kokand University" – 2023

## Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	K. Konstantin	Factors and vector of the development of institutions in the sme sector of the national economy	3-7
2.	B. Khursanaliev	The impact of population growth on the country's economic development	8-11
3.	N. Sharapova	Network analysis of social media research in entrepreneurship development	12-15
4.	М. Абдуллаев	Тенденции и перспективы развития сферы услуг в узбекистане	16-20
5.	Г. Карабаева	Стимулы развития малого бизнеса для повышения качества жизни населения	21-24
6.	A. Baxromov	Problems of the digitalization process in networks and sectors of the economy	25-28
7.	Sh. Dexkanov	Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mechanizmi samaradorligini oshirish	29-34
8.	N. Karimova	Analysis of the current state of retail advertising: a systematic mapping study	35-38
9.	О. Исаев	Внедрение международных стандартов при исламском финансировании в узбекистане	39-42
10.	J. Nuritdinov, A. Abdullayev	O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi	43-47
11.	J. Qodirov	Davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalashning o'rni	48-50
12.	S. Rustamova	Korxonalarda qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy matematik modellashtirish	51-56
13.	A. Sattorov	Auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvlari o'tkazish jarayonida dalillarni to'plash ahamiyati va zaruriyati	57-60
14.	B. Turanboyev Sh. Nishonkulov	Does inflation significantly affect stock investments and their price?	61-64
15.	A. Xojayev	Oliy ta'llim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish yo'llari	65-68
16.	M. Xomidov	Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni	69-72
17.	N. Yuldasheva, A. Umarov, A. Abdullayev	Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiy rivojlanishi	73-75
18.	A. Yusupov	O'zbekiston iqtisodiy sharoitida inson resurslaridan foydalanishdagi faoliyat turlari	76-78
19.	M. Turg'unov	Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda ekonometrik prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish	79-83
20.	D. Mama'yusopova	Мамлакатизда давлат-хусусий шериллиги асосида туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари	84-90
21.	К. Ахмеджанов Ф. Зайнинев	Aҳоли даромадлари ва харажатлари балансига жисмоний шахслар даромад солигининг оптимал таъсирини таъминлаш йўллари	91-96
Pedagogika / pedagogy			
22.	Sh. Jumanova	Peyzajning ijtimoiy - psixologik motivni anglatishdagi o'rni	97-99
23.	O. Kasimova	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyati jarayonida pedagogik improvizatsiyaning o'rni	100-102
24.	B. Safarov	Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	103-105
25.	A. Тангриев	Малакали дзюдочиларни тайёрлашда буралиб улоқтириш бўйича малака тавсиялар	106-111
Lingvistika / Linguistics			
26.	D. Azimova D. Solidjonov	Learning english language as a second language with augmented reality	112-115
Qishloq xo'jaligi / Agriculture			
27.	A Xatamov X. Jabborov	«BUXOROISHARIF» zavod tipining asosiy xususiyatlari	116-118



## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI ASOSIDA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALARNING INVESTITSIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ VA SUG'URTALASHNING O'RNI

**Qodirov Jasurbek Sharofitdinovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Bek-maf@mail.ru

+998 90 809 22 28

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 1

Maqola raqami: 11

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.248>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

investitsion loyihibarlar, soliq to'lovlar, sug'urta badallari, o'zgarish sur'ati, davlat-xususiy sherikchilik(DXSH), korrelyatsiya, VIF koeffitsiyent, regression tahlil.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalash dastaklarini holati o'rganilingan. Shu bilan bir qatorda, mavzuga oid bir necha olimlar tadqiqotlari o'rganilgan holda umumlashtirilgan fikirlar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida, matematik-statistik formulalar hamda korrelyatsion-regression tahlil usullariga to'xtalinilgan. So'ngra olingen natijalar VIF, F-fisher, t-student mezon va p-value koeffitsiyentlari orqali tahlillar amalga oshirilgan. Natija va tahlillarga asosan, ilmiy xulosalar takliflar izlanishning oxirida ifodalanillingan.

**Kirish.** Investitsion faoliyat odamda noaniqlik sharoitida amalga oshiriladi, shuning uchun bunday vaziyatda tavakkalchilik omilini hisobga olishimiz kerak. Yangi uskuna vositalarini totib olishi va o'zlashtirish paytida odatda, kelajakda shular hisobiga keladigan iqtisodiy samarani aniqlash murakkab jarayondir. Shuning uchun investitsion loyiha tahlili paytida ko'p muqobil investitsion loyihibarlar ko'rib chiqilib, yagona investitsion qaror qabul qilinadi.

Bunda loyihibarlar ko'rib chiqishda bir necha kriteriy va parametrlardan foydalananiladi (qo'yilma hajmi, qoplanish muddati, jalb qilinadigan malbag' manbai), loyihibarlar barcha kriteriyalar bo'yicha qarab chiqigandan so'ng ichidan bittasi qabul qilinadi, shuning uchun yo'l qo'yiladigan tavakkalchilik yuqori bo'ladi. Investitsion qarorlarini qabul qilish ham boshqa boshqaruv qarorlarini qabul qilish singari san'atdir. Bu yerda tadbirdorkorning tajribasi, bilimi, mutaxassisligi va qolaversa, sezish holi muhim rol o'ynaydi.

Tadbirkorga jahon menejment xazinasida yig'ilib keladigan bilimlar, jumladan, menejment amaliyotida shakllanib qo'llanib keladigan investitsion loyihibarlar baholash usulublari katta yordam berib keladi. Investorlar uchun investitsion qarorlar qabul qilish juda qiyin vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy mezon korxona qiyamatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxona daromadlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish harajatlarining kamayishi, korxona ishlari samaradorligi darajasini oshirish hisoblanadi.

Real investitsiya loyihibarlar bo'yicha bunday natijalarga erishish uchun, har qanday loyihaning samaradorligini baholash zarur bo'ladi. Shunday qilib investitsiya loyihibarining samaradorligini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki loyihaning samaradorligini baholash darajasidan qo'yilgan kapitalning qaytib kelish muddati, korxonaning rivojlanish sur'ati hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muommalmarni hal qilish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ma'lumki, yangi qurilgan yoki rekonstruktsiya qilingan ob'yektini ishga tushirishni nazarda tutuvchi loyiha-tadqiqot ishlari qurilish-montaj ishlari va mijozga ko'rsatilgan xizmat xarajatlari smetasi doirasida amalga oshiriladi.

Bunda soliq to'lovlar va sug'urta badallari ( $S_{tsm}$ ), turli darajadagi byudjetlarni to'ldirishni nazarda tutadi va buni A.Y.Dobrin quyidagi formulani ta'kidlagan:

$$S_{tsm} = S_{lt} + S_{qm} + S_m + S_q$$

$S_{lt}$  - loyiha-tadqiqot ishlari bajarishda soliq to'lovlar va sug'urta badallari;

$S_{qm}$  - qurilish-montaj ishlari bajarishda soliq to'lovlar va sug'urta badallari;

$S_m$  - mijoz tomonidan o'z funksiyalarini bajarishidagi soliq to'lovlar va sug'urta badallari;

$S_q$  - shuningdek, qurilayotgan (rekonstruktsiya qilinayotgan) obyekt materiallari, ehtiyoj qismi, inshootlar, shuningdek mashinalar, mexanizmlar va transport bilan ta'minlaydigan tashkilotlar(Dobrin, 2016).

Shuningdek, infratuzilma sohasida yirik uzoq muddatli investitsiya loyihibarlarini amalga oshirishda risklar va ularni sug'urtalash muammosi ko'p jihatdan XXI-asr boshlari 1990-yillarda dunyoning yetakchi davlatlarida moliyaviy inqirozi va milliy iqtisodiyotlari barqarorligining pasayishi natijasida yuzaga keldi. Agar jahon amaliyotini hisobga oladigan bo'lsak, DXSH shartnomasini tuzishning zaruriy sharti sug'urta bo'lib, bu ularning risklarini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar kapitalning chiqib ketishiga va umuman investitsiya muhitining yomonlashishiga olib keladigan "ishonch inqirozlar" muammosiga duch keldilar<sup>28</sup>.

Shuni inobatga olgan holda, Y.M. Ilyinix infratuzilma loyihibarliga investitsiyalarni yo'naltirish va sug'urtalash segmentida xalqaro rivojlanish institutlari va moliyaviy tashkilotlarning roli sezilarli darajada oshadi, ular inqirozlandan va xavflarni sug'urtalashdan qo'shimcha kafolatlar tizimini yaratishning turli model va usullarini taklif qildi. 2010 yilda Rossiya bozori xorijiy sug'urta kompaniyalarining oqimi kirib keldi, buning natijasida sug'urtalanganlarning manfaatlarini himoya qilish sifati ortib bordi(Ильиных, 2010)

T.V. Pirogova va Y.M. Ilyinixlар infratuzilma loyihibarini amalga oshirishda davlat sug'urtaga ma'lum talabarni qo'yish va xavflarning minimal paketini belgilash orqali muhim rol o'ynaydi. Shartnoma bo'yicha daromad oluvchi ba'zi hollarda davlatning o'zi, ba'zan esa - xususiy sherik bo'lishi mumkin. Expert RA reyting agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, sug'urta kompaniyalari ekspertlarining fikriga ko'ra, sug'urtadan foydalish samaradorligi bo'yicha birinchi uch o'rinni halokatlari xavflar (tabiiy ofatlar, terrorizm va boshqalar), qurilish-montaj xatarlari, va yong'in va boshqa xavflar (yong'in, portlash, suv harakati) egallaydi. Bundan kelib chiqadiki, har uchala "rekord egalari" ham DXSh loyihibarlarda eng ko'p uchraydigan xavflar bo'limiga kiradi, shu sabab xususiy sherik xavflarni pudratchilarga qayta taqsimlashga intiladi(Пирогова ва Ильиных лар., 2016).

Hozirgi vaqtida sug'urtalovchilarning vazifasi nafaqat risklarni

<sup>28</sup> Развитие государственно-частного партнерства в России [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [http://rusline.ru/analityka/2009/02/17/razvitiye\\_gosudarstvenno-chastnogo\\_partnerstva\\_v\\_rossii/](http://rusline.ru/analityka/2009/02/17/razvitiye_gosudarstvenno-chastnogo_partnerstva_v_rossii/) (дата обращения: 17.12.16).

sug'urtalash va sug'urta to'lovlari kafolatlash, balki sug'urta xarajatlari investitsiya xarajatlarini og'irlashtirmasligi uchun loyihaning risklar va salbiy hodisalarini (ehtimoliy yo'qotishlar) ehtimolining optimal sxemasini topishdir. Rossiya davlatida amalga oshirilayotgan DXSh obyektlarini sug'urtalash amaliyotiga qaraydigan bo'lak, xorijiy sug'urta bilan solishtirganda, sug'urta darajasi minimalmdir, bu esa loyiha investorlari uchun yuqori xavflarni keltirib chiqarayotganini ko'rishingiz mumkin.

Loyihaning tavakkalchiligini baholash uning tuzilishi va loyihaning moliyaviy va huquqiy sxemasini ishlab chiqish yo'lidagi birinchi qadamdir. Xatarlarni muvozanatlari taqsimlash loyihani muddatidan oldin yakunlash ehtimolini minimallashtiradi va aslida bunday risklar yuzaga kelgan taqdirda tomonlarning tartibi va majburiyatlarni belgilaydi. Xususan, xususiy investorning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan risklarni (masalan, qurilish/rekonstruksiya bosqichida belgilangan muddatlarga roiya qilmaslik va smetadan oshib ketish va h.k.) xususiy investorga yuklash maqsadga muvofiq ko'rindan.

Loyiha-tadqiqot ishlarini ( $S_{lt}$ ) bajarishda soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlari miqdori quyidagi bog'liqlik bilan belgilanadi:

$$S_{lt} = S_{ls} + S_{lj} + S_{lt} + S_{lm} + S_{ld} + S_{lq}$$

$S_{ls}$  - loyiha-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida davlat byudjetidan tashqari jamg'armalariga sug'urta mukofotlari;

$S_{lj}$  - jismoniy shaxslarning (tadqiqotchilar va loyihachilar) daromadlaridan olinadigan soliqlari;

$S_{lt}$  - loyiha-tadqiqot tashkilotlarining transport soliq'i;

$S_{lm}$  - loyiha-tadqiqot tashkilotlarining mulk soliq'i;

$S_{ld}$  - loyiha hujjatlarini ishlab chiqishdan olinadigan daromad soliq'i;

$S_{lq}$  - loyihalash va tadqiqot ishlari uchun qo'shilgan qiymat soliq'i (QQS).

A.Y.Dobrin fikricha, sug'urta mukofotlari quyidagilardan iborat:

$$S_{ls}=K_s \cdot F_{lt}$$

bunda:

$K_s$  - davlat nobyudjet fondlariga sug'urta mukofotlari stavkasi;

$F_{lt}$  - loyihalash va tadqiqot ishlarining narxidagi ish haqi fondi (LTI) (Dobrin, 2016).

Loyihalash jarayonida uning ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning xarajatlar tarkibini tahlil qilishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqiladi (loyihalash va tadqiqot ishlari; qurilish-montaj ishlari; import qilinadigan materiallar ulushini taqsimlash bilan qurilishni amalga oshirish uchun etkazib beriladigan uskunalar, mashinalar va mexanizmlar, materiallar va resurslar va boshqalar). Yuqorida nazarda tutilgan ishlar jamaot temir yo'l transporti infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan yoki ko'rib chiqilgan loyihalarning tahlili haqiqiy materiallardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqoridagilarni inobatga olib, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalardan to'lanadigan soliq to'lovlari va sug'urta badallari tahlilini amalga oshiramiz. Bu jarayonida dinamik qatorlarni statistik tahlil usulidan foydalanimiz. Dinamikani o'rganishda eng ko'p tarqalgan va ishlataladigan ko'rsatkich o'zgarish sur'atidir. O'zgarish sur'ati deb qatorning ikki hadining nisbatiga aytildi. Bu ko'rsatkich koeffitsiyentda va foizda (%) ifodalanadi va quyidagi formulalar bilan aniqlanadi<sup>29</sup>:

$$R_b = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} \cdot 100$$

Shuningdek, statistikaning vazifasi o'zgarish sur'atlarini yillarda bo'yicha hisoblash emas, balki uzoq davrlar uchun ham hodisaning rivojlanish intensivligini baholashdir. Bu vazifani o'rtacha yillik o'zgarish sur'atlarini hisoblash bilan yechamiz. Agarda zanjirsimon usulda o'zgarish sur'atlarini ma'lum bo'lsa, o'rtacha yillik o'zgarish sur'atini quyidagi o'rtacha geometrik formula yordamida aniqlaymiz<sup>30</sup>:

$$\bar{R} = \sqrt[n]{R_1 \cdot R_2 \cdot R_3 \cdots R_n}$$

Shuningdek, investsion loyihalar samaradorligini ortirishda soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlarining o'zaro ta'sirini o'rganamiz. Bunda ekonometrik modellahtirish jarayonida qo'llaniladigan korrelyatsion tahsil ululidan foydalanimiz.

Korrelyatsion tahsil ikkita omil o'rtasidagi (juft bog'liqlikda) hamda natijaviy omillar bilan boshqa ko'p omillar o'rtasidagi (ko'p omillar bog'liqlikda) bog'liqlikning zichligini miqdoriy jihatdan aniqlashdan

iborat(Mustafakulov va Sabirovlar.,2022).

X.Sabirov, Abdullayeva va boshqalar o'z tadqiqotlarida quyidagi korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalishgan:

$$r_{x/y} = \frac{\bar{x} \cdot \bar{y} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y}$$

$$\sigma_x = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n}} \quad \sigma_y = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}{n}}$$

Korrelyatsiya koeffitsiyenti ( $r$ ) -1 dan +1 oralig'idagi qiymatlardan tashkil topadi. Agar  $r = 0$  ga teng bo'lsa, omilar o'tasida bog'lanish mavjud emas bo'ladi va  $0 < r \leq 1$  oralig'da bo'lsa, to'g'ri bog'lanishga ega bo'ladi.  $-1 \leq r \leq 0$  oralig'ida teskarai bog'lanish mavjud bo'ladigan bo'lsa,  $r = 1$  esa funksional bog'lanish mavjud bo'lganligini ifodalandi (Sabirov va boshqa.,2022).

Ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsiyentlari zich bog'lanishi multikollinearlik tushunchasini hosil qiladi hada uni aniqlash uchun VIF-me'zonidan foydalaniлади.


J.X. Stosk va M.V. Watsonlar VIF(variance inflation factor) koeffitsiyentlari modelning o'zgaruvchilari bir-biri bilan qanchalik kuchli bog'liqligini ko'rsatadi. Ta'sir etuvchi omilga mos keladigan VIF koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniб hisobladi:

$$VIF = \frac{1}{1 - R^2}$$

Bunda:  $R^2$  - ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsiyentining kvadrat qiymatidir(Stock va Watson lar., 2020).

Agar barcha o'zgaruvchilar uchun VIF koeffitsiyentlari 10 dan kam bo'lsa, bu modelda sezilari multikollinearlik yo'qligini anglatadi. Aks holda, model multikollinearlikka ega degan xulosaga kelish kerak.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Amalga oshirilgan loyihalardan to'langan soliq to'lovlari 2019-yildan 2020 yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. 2021 yildan boshlab nisbat ko'rsatkich qiymatlar kamayib borgan, bu esa o'z navbatida sohaga kiritilayotgan investsion loyihalardan olinadigan soliq to'lovlari stavfkalarini kamaytilishli va sohaga qaratilayotgan e'tibordan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda, sohaga kiritilayotgan investsion loyihalarning amalga oshirilishi va uning hayotiylik davrini oshirish uchun ularni bevosita sug'urtalash ijobji natijalarini beradi. Sug'urtalash badallaridagi miqdorlarning o'zgarishiga qarab, mamlakatga kiritilayotgan xorijiy va mahalliy investsion loyihalarning hajmi oshishi yoki kamayishiga ta'sir o'tказади. «O'zbekiston temir yo'llari» AJ davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalardan ushlanadigan sug'urtalash badallarining yillarda nisbatidagi foiz qiymatlarini quyidagi grafikda ko'rishingiz mumkin.




2.7-rasm. Soliq to'lovlarning o'zgarish sur'ati<sup>31</sup>

Tahsil natijalariga asosan «O'zbekiston temir yo'llari» AJ davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalardan ushlanadigan sug'urtalash badallari 2018 yilga nisbatan 2019 yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan, bu o'z navbatida 2019 yilda qo'shimcha 81 % ga o'sgan. 2022 yilga esa sug'urta badallari nisbat qiymati 113 % ni tashkil etgan, bu esa kiritilayotgan loyiha-tadqiqot ishlari dag sug'urtalash mukofotlarining kamayaganligini ta'kidlaydi.

<sup>29</sup>

<https://staff.tiame.uz/storage/users/55/presentations/tmmQ7tLYRCcOHOKA3Ykkm2C9H8l0cFwIf9oSYnzP.pdf>

<sup>30</sup> Ўзбекистон темир йўллари АЖ томонидан берилган маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси



**2.8-rasm. Loyiha-tadqiqot ishlarni sug'urtalash badallarining yillar nisbatidagi foiz qiyatlari<sup>32</sup>**

Tadqiqot jarayonida loyiha-tadqiqot ishlarning soliq to'lovlar va sug'urta mukofotlari bilan orasidagi bog'lanishni Stata14 amaliy paketidan foydalangan holda tahlilini amalga oshiramiz.

	Y	X1	X2
Y	1.0000		
X1	-0.2466	1.0000	
X2	-0.2280	0.9019	1.0000

**2.9-rasm. Korrelyatsion tahlil natijasi<sup>33</sup>**

Hisob-kitoblar natijasida, amalga oshirilgan loyiha-tadqiqot ishlariiga soliq to'lovlar va sug'urta badallari teskari va sust bog'langanini ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, ta'sir etuvchi omillar orasida to'g'ri va zich bog'langanini ifodalamoqda. Bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sohaga kiritilayotgan investitsion loyihalarga belgilanib qo'yilayotgan soliq stavkalarini va sug'urta badallarini kamaytirilishi natijasindir. Tadqiqotimiz jarayonida quyidagicha natijalar hosil bo'ldi:

Variable	VIF	1/VIF
X1	5.36	0.186492
X2	5.36	0.186492
Mean VIF		5.36

**2.10-rasm. VIF koeffitsiyent natijalari<sup>34</sup>**

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Добрин А. Ю. Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве. ДИССЕРТАЦИЯ/ Москва – 2016 г. 157с.
- Ильиных Ю.М. Перспективы развития страхового бизнеса в России // Вестник Алтайской академии экономики и права. - 2010. - № 1. - С. 66-69.
- Пирогова Татьяна Викторовна, & Ильиных Юлия Михайловна (2016). Роль страхования в развитии государственно-частного партнерства. Алтайский вестник Финуниверситета, (1), 122-131.

Korrelyatsion tahlil natijasida ishtirok etgan ta'sir etuvchi omillarni orasida zich bog'lanishiga qaramay, ular orasida multikollinearlik mavjud emas. Soliq to'ovi (X1) va sug'urta mukofotlari (X2)ning VIF koeffitsiyentlari 5.36 ga teng, bu esa 10dan kichkinadir. Ta'sir etuvchi omillar orasida multikollinearlik mavjud bo'lmasligi bois, keyingi bosqich ya'ni regression tahlil amalga oshiriladi. Regression tahlilda chiziqli ko'p omilli regression model tuzamiz.

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	5
Model	557.09336	2	278.54668	F(2, 2)	=	0.06
Residual	8579.49612	2	4289.74806	Prob > F	=	0.9390
				R-squared	=	0.0610
				Adj R-squared	=	-0.8781
Total	9136.58948	4	2284.14737	Root MSE	=	65.496

Y	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
X1	-0.0040213	.0290455	-0.14	0.903	-.1289939 .1209513
X2	-0.0001062	.0056451	-0.02	0.987	-.0243952 .0241829
_cons	571.722	135.033	4.23	0.052	-9.278201 1152.722

**2.11-rasm. Regression tahlil natijasi<sup>35</sup>**

Regression tahlil natijasiga asosan, model quyidagicha bo'ldi:

$$Y = 571,722 - 0,004 * X1 - 0,0001 * X2$$

yoki

$$In.loy = 571,722 - 0,004 * S_{lti} - 0,0001 * S_{ls}$$

Model natijasiga asosan, soliq to'lovlar va sug'urta mukofotlari investitsion loyiha ishlariiga salbiy ta'sirini ifodalamoqda. Bu o'z navbatida ularning oshishi investitsion loyiha ishlarini kamayishini olib keladi. Stata15 amaliy paketi orqali olingan natijalarga asosan, modelning determinatsiya koeffitsiyenti 0,061 ga tenglashdi. Bu o'z navbvtida, tuzilgan modelning qiymatlari real qiymatlaridan ancha uzoqligini ifodalarydi. F-mezon qiymati r-value qiymatiga asosan ahamiyatsiz bo'lib, bu tanlangan model shakli adekvat emasdir.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga asosan, «O'zbekiston temir yo'llari» AJG kiritilayotgan investitsion loyihalardan olinadigan soliq to'lovlar stavgalarini kamaytirilishi va sohaga qaratilayotgan e'tibordan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda, sohaga kiritilayotgan investitsion loyihalarning amalga oshirilishi va uning hayotiylik davrini oshirish uchun ularni bevosita sug'urtalash ijobji natijalarni beradi.

Shu bilan bir qatorda, amalga oshirilgan loyiha-tadqiqot ishlariiga soliq to'lovlar va sug'urta badallari teskari hamda sust bog'langanligi aniqlandi. Bu o'z navbatida, soliq to'lovlar va sug'urta badallarini kamaytirish kerakligi ifodalarydi.

Shuningdek, model natijasiga asosan soliq to'lovlar va sug'urta mukofotlari investitsion loyiha ishlariiga salbiy ta'siri borligi ilmiy asoslandi. Tadqiqot jarayonida topilgan model parametrlarining styudent qiymati r-value qiymatiga asosan ahamiyatsiz bo'ldi hamda ular ishonchsz ekanligi xulosa qilindi. Natijalar shuni anglatadi, tuzilgan model to'liq salbiy bo'ldi. Shuni inobatga olib, modelda qatnashgan omil va kuzatuvlar sonini oshirishimiz kerak degan xulosaga kelindi.

4. Добрин А. Ю. Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве. ДИССЕРТАЦИЯ/ Москва – 2016 г. 157с.

5. Ш.Мустафакулов., Х.Сабиров. "Эконометрика I" Ўқув қўлланма.-Т.: "Илим-фан ва инновация" 2022, 2326.

6. Sabirov, H. N., Abuvaliyeva, Z., & Kh, T. (2022). ECONOMETRIC MODELING OF BUSINESS PROCESSES BASED ON TIME SERIES DATA. Экономика и социум, (7 (98)), 102-110.

7. Stock JH, Watson MW "Introduction to Econometrics" 4th Edition, ISBN 978-0-13-446199-1, published by Pearson Education © 2020.

<sup>32</sup> «Ўзбекистон темир йўллари» AJK томонидан тақдим килинган мальумотномасидан фойдаланиб тадқиқотчи томонидан тузилган

<sup>33</sup> Stata15 amaliy paketi orkali olingan mualiffi xisob-kitob natijası

<sup>34</sup> Stata15 amaliy paketi orkali olingan mualiffi xisob-kitob natijası

<sup>35</sup> Stata15 amaliy paketi orkali olingan mualiffi xisob-kitob natijası

**QO'QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**1 / 2023**

**ISBN: 2181-1695**

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»  
garniturasi. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnomaga asosida.  
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida  
chop etildi.



OJS  
OPEN  
JOURNAL  
SYSTEMS

